

FORS TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN AFFIKSOIDLAR

Omonova Sabrina Hayitqul qizi

DTPI filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

tel:+998 (91) 077-26-36

E-mail: omonovasabrina808@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371365>

Annotatsiya. Ushbu tezisda fors tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan affiksoidlar, ularning yasalishi va o'zbek tilida qanday grammatik ma'nolarni anglatishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fors tili, affiksoid, til, qo'shimcha, o'zbek tili, ma'no

O'zbek tilining leksik tarkibiga kuchli ta'sir ko'rsatgan tillardan biri fors tilidir. Bundan tashqari o'zbek tilining shakllanishida ko'pgina tillar: tojik, arab va rus tilining ham ahamiyati kattadir. Forsiy so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishida quyidagi omillar muhim rol o'ynagan: a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi; b) o'zbek-tojik va tojik o'zbek ikki tilliligining keng tarqalganligi; v) tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi; g) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi; d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik. Ma'lumot o'rnida shuni ham aytish lozimki, fors tili uzoq asrlar mobaynida Afg'oniston, Markaziy Osiyo, Hindiston, Ozarbayjonda ham qisman adabiy va davlat tili sifatida qo'llanilgan.

Affiksoidlar deb, asli leksik birlik bo'lib, keyinchalik xuddi qo'shimchalar kabi grammatik ma'no ifodalashga xizmat qiladigan birliklarga aytiladi. O'zbek tilida affiksoidlar leksemalardan keyin qo'shib yangi so'z hosil qiladi. Affiksoidlar leksema yasovchilik vazifasini bajaradi.[5] Fors tilida esa ular yaxlit bir leksemani anglatadi. Masalan, somsapaz, oshpaz, nonpaz, mantipaz, kabobpaz kabi so'zlar tarkibidagi -paz qo'shimchasi asli forscha bo'lib, puxtan (pishirmoq) fe'lining hozirgi zamon o'zagiga teng. Bundan tashqari juda ko'plab misollarni ham keltirishimiz mumkin.

1. -xon qo'shimchasi duoxon, kitobxon, gazetxon, jurnalxon, g'azalxon, she'rxon kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani doimiy mutolaa qiluvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -xon qo'shimchasi fors tilidagi خاندن xondan fe'lidan olingan bo'lib, o'qimoq degan ma'noni anglatadi.

2. -kor qo'shimchasi sholikor, paxtakor, g'allakor kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -kor qo'shimchasi fors tilidagi كاشتن koshtan fe'lidan olingan bo'lib, ekmoq degan ma'noni anglatadi.

3. -do'z qo'shimchasi etikdo'z, mahsido'z, do'ppido'z, kashtado'z, mo'ynado'z kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani tikuvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -do'z qo'shimchasi fors tilidagi دوختن duxtan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, tikmoq degan ma'noni anglatadi.

4. -xo'r qo'shimchasi nonxo'r, choyxo'r, qasamxo'r, aroqxo'r, nafaqaxo'r kabi so'zlarda asosdan anglashilgan yegulik, ichimlikni doimiy iste'mol qiluvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -xo'r qo'shimchasi fors tilidagi خردن fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, yemoq va ichmoq ma'nolarini anglatadi.

5. -furusht qo'shimchasi chitfurusht, somsafurusht, nosfurusht, mevafurusht kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -furusht qo'shimchasi fors tilidagi فروختن fo'ruxtan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, sotmoq degan ma'noni anglatadi.

6. -dor qo'shimchasi bog'dor, mansabdor, puldor, do'kondor, mulkdor kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsaga ega bo'lgan shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -dor qo'shimchasi fors tilidagi داشتن doshtan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, ega bo'lmoq, bor bo'lmoq degan ma'nolarni anglatadi.

7. -don qo'shimchasi bilimdon, gapdon kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani biluvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -don qo'shimchasi fors tilidagi دانستن donestan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, bilmoq degan ma'noni anglatadi.

8. -shunos qo'shimchasi adabiyotshunos, tabiatshunos, yershunos, tilshunos va mantiqshunos kabi so'zlarda asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -shunos qo'shimchasi fors tilidagi شناختن shenoxtan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, tanimoq degan ma'noni anglatadi.

9. -kash qo'shimchasi aravakash, kirakash, mehnatkash, jafokash, dardkash kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani qiluvchi, tortuvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -kash qo'shimchasi fors tilidagi كشيدن kashidan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, tortmoq, chekmoq, tashimoq ma'nolarini anglatadi.

10. -boz qo'shimchasi dorboz, nayrangboz, masxaraboz, kaptarboz, qog'ozboz kabi so'zlarda asosdan anglashilgan ish-harakat bilan ko'p shug'ullanuvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -boz qo'shimchasi fors tilidagi باختن boxtan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, o'ynamoq degan ma'noni anglatadi.

11. -soz qo'shimchasi soatsoz, kemasoz, qayiqsoz kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani tuzatuvchi, yasovchi shaxs ma'nolarini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -soz qo'shimchasi fors tilidagi ساختن soxtan fe'lining hozirgi zamon fe'l asosidan olingan bo'lib, tuzatmoq, yasamoq degan ma'nolarni anglatadi.

12. -parast qo'shimchasi mayparast, butparast, mansabparast, shuhratparast kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsaga sig'inish, mukkasidan ketish ma'nolarini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -parast qo'shimchasi fors tilidagi پرستيدن parastidan fe'lidan olingan bo'lib, itoat qilmoq degan ma'noni anglatadi.

13. -bin qo'shimchasi folbin, durbin so'zlarida asosdan anglashilgan narsani ko'ruvchi ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -bin qo'shimchasi fors tilidagi ديدن didan fe'lining hozirgi zamon fe'l asosidan olingan bo'lib, ko'rmoq degan ma'noni anglatadi.

14. -navis qo'shimchasi romannavis, tarixnavis, hikoyanavis kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsa-predmetni yozuvchi shaxs ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -navis qo'shimchasi fors tilidagi نوشتن navesthan fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, yozmoq degan ma'noni anglatadi.

15. -baxsh qo'shimchasi hayotbaxsh, orombaxsh, shifobaxsh kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsa-predmetni beruvchi ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -baxsh qo'shimchasi fors tilidagi بخشيدن baxshidan fe'lidan olingan bo'lib, bag'ishlamoq, kechirmoq ma'nolarini anglatadi.

16. -saro qo'shimchasi motamsaro so'zida asosdan anglashilgan narsani aytuvchi ma'nosini bildiradi. Bu qo'shimcha hozirda nafaol hisoblanadi. Bu so'zdagi -saro qo'shimchasi fors tilidagi so'rudan سورودن fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, kuylamoq, ashula aytmoq degan ma'noni anglatadi.

17. -go'y qo'shimchasi xasadgo'y, xushomadgo'y kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsa-predmetni qiluvchi ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -go'y qo'shimchasi fors tilidagi guftan گوفتن fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, aytmoq degan ma'noni anglatadi.

18. -parvar qo'shimchasi xalqparvar, vatanparvar, adolatparvar kabi so'zlarda asosdan anglashilgan narsani sevish ma'nosini bildiradi. So'zlar tarkibidagi -parvar qo'shimchasi fors tilidagi parvordan پروردن fe'lidan olingan bo'lib, tarbiya qilmoq, o'stirmoq degan ma'nolarni anglatadi.

19. -namo qo'shimchasi darveshnamo, avliyonomo, majnunnamo, uyalgannamo kabi so'zlarda biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiradi. Ushbu affiks o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi va -simon qo'shimchalari vositasida yasalgan sifatlarga sinonim bo'lib, kela oladi: devonanamo—devonasifat—devonasimon, oliftanamo, olimnamo, kasalnamo kabi. So'zlar tarkibidagi -namo qo'shimchasi fors tilidagi namudan نمودن fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, ko'rsatmoq degan ma'noni anglatadi.

20. -kush qo'shimchasi odamkush, padarkush kabi so'zlarda qo'llaniladi. So'zlar tarkibidagi -kush qo'shimchasi fors tilidagi koshan كوشتن fe'lining hozirgi zamon asosidan olingan bo'lib, o'ldirmoq degan ma'noni anglatadi.

Yuqorida keltirilgan misollar asosida affiksoidlarning fors tilidagi leksik ma'nolari va o'zbek tilida qanday grammatik ma'nolarni ifoda etishi aniqlandi. Fors tilidan o'zbek tiliga juda ko'plab affiksoidlar o'zlashgan. Bu shakllar lug'at boyligimizni oshirishda ishtirok etadi. Masalan, bug'doykor, nafaqaxo'r, tekinxo'r, adolatparvar, qalamkash, buyruqboz, maxsido'z, telbanamo, ipakfurush kabi so'zlar tarkibidagi shakllar o'zbek tilida qo'shimchalar sifatida qaraladi va yangi so'zlar hosil qilishda ishtirok etadi. Fors tilida esa ular yaxlit bir leksemani ifodalaydi. O'zbek tili lug'atining boyishi asosan, ikki manbaga asoslanadi: O'zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba). Bunda ko'pincha so'z yasash orqali yangi so'zlar hosil qilinadi. Boshqa tillardan so'z olish (tashqi manba) hisoblanadi. O'zbek tili o'zining uzoq tarixi davomida o'z lug'at boyligini, avvalo, ichki imkoniyatlar hisobiga qolaversa boshqa tillardan kirib o'zlashib qolgan so'zlar hisobiga rivojlantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdusamatov M. Fors tili. –Toshkent: NMAK, 2007.
2. Jamolxonov X. A. Hozirgi o'zbek adabiy tili 2-qism. -Toshkent: TDPU.
3. Muhiddinova T, Xudayberganova D, Umirov I, Jiyanova N va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: NMIU, 2006.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: "Universitet", 2006.
5. Sayfullayeva R.R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: IRNMU, 2020.